



THE FORMATION OF SOCIO-CULTURAL IDENTITY IN INDUSTRIAL (SOCIALIST) CITIES UNDER CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Sayfiddin Anarkulov

Associate Professor, Department of Archaeology and Ethnology

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

PhD, Researcher at the Laboratory of Applied Ethnology

E-mail: anorqulovsayfiddin@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Globalization, socio-cultural identity, industrial cities, Angren, Chirchiq, urbanization, Soviet ideology, miners, chemists, migration, ethnic identity, socialist environment, industrialization, cultural transformation, self-awareness.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: This article analyzes the issue of socio-cultural identity formed in industrial cities under the conditions of globalization through the examples of the cities of Chirchiq and Angren in the Tashkent region. It demonstrates that globalization has influenced not only economic processes, but also cultural and social life, particularly contributing to the formation of a new socio-cultural environment in Soviet industrial cities. The study highlights the impact of industrialization policy, migration processes, urbanization, production relations, and the ideological system on the self-awareness of urban populations. Furthermore, the article scientifically examines how industrial enterprises, cultural and social institutions, and the educational system contributed to the formation of a common socialist socio-cultural environment among the population.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA SANOAT (SOTSIALISTIK) SHAHARLARIDA IJTIMOYIY-MADANIY IDENTIKLIKNING SHAKLLANISHI

Sayfiddin Anarkulov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Arxeologiya va etnologiya kafedrasi dotsenti, PhD

Amaliy etnologiya laboratoriyasi xodimi

anorqulovsayfiddin@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Globallashuv, ijtimoiy-madaniy identiklik, sanoat shaharlari, Angren, Chirchiq, urbanizatsiya, sovet mafkurasi, konchilar, kimyogarlar, migratsiya, etnik identiklik, sotsialistik muhit, sanoatlashtirish, madaniy transformatsiya, oʻzlikni anglash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida sanoat shaharlarida shakllangan ijtimoiy-madaniy identiklik masalasi Toshkent viloyatining Chirchiq va Angren shaharlari misolida tahlil qilingan. Globallashuv jarayonining nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy hayotga ham taʼsir koʻrsatganini, ayniqsa sovet davri sanoat shaharlarida yangi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishiga sabab boʻlganini koʻrsatadi. Tadqiqotda sanoatlashtirish siyosati, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya, ishlab chiqarish munosabatlari va mafkuraviy tizimning shahar aholisi oʻzligini anglashiga taʼsiri yoritilgan. Shuningdek, maqolada sanoat korxonalari, madaniy-maishiy muassasalar va taʼlim tizimi orqali aholida umumiy sotsialistik madaniy muhit shakllangani ilmiy asosda tahlil etilgan.

**ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В
ИНДУСТРИАЛЬНЫХ (СОЦИАЛИСТИЧЕСКИХ) ГОРОДАХ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

Сайфиддин Анаркулов

Доцент кафедры археологии и этнологии

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,

PhD, сотрудник Лаборатории прикладной этнологии

E-mail: anorqulovsayfiddin@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, социокультурная идентичность, индустриальные города, Ангрэн, Чирчик, урбанизация, советская идеология, шахтёры, химики, миграция, этническая идентичность, социалистическая среда, индустриализация, культурная трансформация, самоидентификация.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема формирования социокультурной идентичности в индустриальных городах в условиях глобализации на примере городов Чирчик и Ангрэн Ташкентской области. Исследование показывает, что процесс глобализации оказывает влияние не только на экономическую сферу, но и на культурную и общественную жизнь, способствуя формированию новой социокультурной среды в бывших советских индустриальных городах. В работе освещается влияние политики индустриализации, миграционных процессов, урбанизации, производственных отношений и идеологической системы на самоидентификацию городского населения.

Кроме того, на научной основе анализируется роль промышленных предприятий, культурно-бытовых учреждений и системы образования в формировании общей социалистической культурной среды среди населения.

Kirish. Globallashuv butun dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning chuqur integratsiyasi va o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan, ayniqsa, 1980–1990-yillardan boshlab ilmiy va jamoatchilik muhokamasida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalardan biriga aylandi. U dunyoning “siqilishi” va butun dunyo yaxlitligi haqidagi ongning kuchayishi bilan tavsiflanadi [1]. Mazkur hodisa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, jamiyatning madaniy sohasiga ham ta’sir qilmoqdaki, bu insonning madaniy o‘zligini anglashi mezonlarining o‘zgarishiga olib kelayapti. Shu tufayli globallashuv jarayoni madaniy tizimlarni “buzadi”, bu esa inson tomonidan an’anaviy qadriyatlar hamda me’yorlarni qayta ko‘rib chiqishga olib keladi [2:3]. Natijada ushbu masala etnologiya, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi ko‘plab sohalar kesimidagi tadqiqot obyektiga aylandi.

Globallashuv sharoitida etnoslarning ijtimoiy-madaniy identikligi masalasi ko‘plab tadqiqotchilari tomonidan o‘rganildi [3:3]. Buning yetarlicha sabablari bor albatta. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bozor munosabatlariga asoslangan yo‘liga o‘tilishi, aholining turmushiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Kishilar ongidagi ideallar ham o‘zgardi. Ular endilikda mafkuraviy yetuklikdan moddiy yetuklikka intila boshladilar. Bunday sharoitda albatta aholining o‘zlikni anglashidagi mezonlar transformatsiyaga uchradi. Qolaversa, siyosatning totalitar shaklidan demokratik ko‘rinishga o‘tilishi, sovet davridagi yagona sovet millati g‘oyasining yemirilishi, o‘lkada yashayotgan 190 dan ortiq [4] etnoslarning milliy o‘zligini anglashida o‘ziga xosliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham ko‘pgina tadqiqotchilar ushbu dolzarb muammo doirasida o‘z izlanishlarini olib bordilar.

Adabiyotlar sharxi. Identiklik masalasiga to‘xtalinadigan bo‘lsa, o‘tgan asrning 40-yillaridan sovet etnograflari (Mavrodin V.V.) tomonidan “milliy o‘zlikni anglash” shaklida, keyinchalik Kushner tomonidan “etnik o‘zlikni anglash” ko‘rinishida talqin qilina boshlandi [5:66]. O‘tgan asrning oxirlarida esa tadqiqotchilar etnik identiklik masalasini etnik o‘zlikni anglashdan farqli hodisa sifatida ta’kidlay boshladilar [6:31]. Yevropa davlatlarida esa global sharoitdagi etnik identiklik yoki etnik stereotiplar masalasi etnik nizolarni keltirib chiqaruvchi jihat ekanligi ham aytila boshlandi [7:2].

Shu o'rinda aytish kerakki, global sharoitdagi ijtimoiy-madaniy mansublik masalasini tadqiq qilishdan oldin "globallashuv" atamasi xususida qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Ushbu so'z ilk bor XIX asrning o'rtalarida Karl Marksning yozishmalarida qo'llanila boshlangan bo'lsa-da [8], aslida u nazarda tutgan jarayon juda qadimdan boshlangan. Masalan, biror imperiya tarkibiga kiruvchi turli etnoslar uchun umumiy madaniyat belgilarining paydo bo'lishi yoki xo'jalik faoliyatining yaqinlashuvini globallashuv sifatida e'tirof etish mumkin. Bundan xulosa chiqadiki, biror etnosning ijtimoiy-madaniy mansublik holatini belgilash, birinchi navbatda ular yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi globallashuv jarayonining bor yoki yo'qligini ifodalaydi. Misol uchun IX-XII asrlarda Sharq dunyosida ilm-fanning yuksalishida islom dinining yoyilishini, XV-XVI asrlardan boshlab yevropaliklarning dunyoning katta qismini zabt etishining boshlanishida ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishini globallashuv jarayoni sifatida baholash mumkin. Ko'rinib turibdiki, globallashuv sharoiti deyilganda faqatgina zamonaviy davr tushunilmaydi, balki yuz berayotgan voqea-hodisalarning ommalashgan yoki keng tarqalganligi nazarda tutiladi.

Tadqiqotlar asosan sobiq SSSR hududidagi sotsgorodlar va monogorodlarning post-sotsialistik transformatsiyasiga qaratilib, bu jarayon deindustrializatsiya, bozor iqtisodiyoti va madaniy gomogenizatsiya bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. 1929-yilda Magnitogorsk Metallurgiya Kombinati asosida qurilgan ushbu shahar sovet davrida "sotsializm qurilishi" va "yangi sovet insoni" g'oyasining ramzi bo'lgan. Rossiyalik tadqiqotchilar, jumladan N.G. Orlova [9] va D.A. Davidov [10], globallashuv ta'sirida an'anaviy sovet me'morchiligi va sanoat merosiga asoslangan identiklik zaiflashayotganini, biroq "metallurg shahri" kabi kasbiy identiklik unsurlari hanuz saqlanib qolayotganini ta'kidlaydilar.

Muhokama va natijalar. Shu jihatdan olib qaraganda, sovet davri sanoat (sotsialistik) shaharlari aholisi orasidagi ijtimoiy-madaniy o'zligini anglash masalasini global sharoitdagi jarayon sifatida baholash mumkin. Negaki, quyida keltiriladigan ma'lumotlardan ko'rinadiki, sanoat shaharlari aholisining yangi makonga moslashuvida bir-biriga yaqin ijtimoiy-madaniy hissiyotlar shakllangan.

XX asrning o'rtalariga qadar Toshkent viloyatida Chirchiq, Olmaliq, Angren, Bekobod kabi yirik sanoat markazlari shakllandi [11:40-42]. Ularning har birida tabiiy sharoitidan kelib chiqib, o'ziga xos sanoat tarmoqlari rivojlantirildi. Chirchiq kimyoviy o'g'itlar yoki energiya ishlab chiqarishga, Angren ko'mir, Olmaliq rangli metall va Bekobod sement qazib olish hamda qora metallni qayta ishlashga ixtisoslashtirildi. Mavjud shart-sharoitlar albatta, bu yerda yashayotgan aholining ijtimoiy-madaniy hayotiga ham sezilarli ta'sir qildi.

Chirchiq nafaqat Toshkent viloyati, balki, butun respublikadagi eng yirik sanoat markazlaridan biri bo'lgan. O'tgan asrning o'rtalariga qadar bu yerda 40 dan ziyod [12:12] millatlar istiqomat qiluvchi ko'p millatli makon paydo bo'ldi. 50-yillardan boshlab boshqa sotsialistik shaharlarda bo'lganidek, Chirchiq shahrida ham bunyodkorlik ishlari avj oldi. Shaharga 1961-yilda tabiiy gaz kirib keldi [11] va 1965-yilda davlat uylarining barchasi gazlashtirildi [13:69]. Chirchiq shahrini 1966-1968-yillarda qayta qurish tadbirlari davrida urbanizatsiya chegarasi yanada kengaydi. Aholi sonining o'sib borishi bilan turar joyga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadida ko'p qavatli uylar barpo etila boshlandi. Nafaqat shahar markazi, balki unga tutash bo'lgan Troitskiy, Oqqovoq posyolkalarida ham 4-5 qavatli uylar bunyod etildi. Tashkil etilayotgan massivlar, ko'chalar va boshqa jamoa joylarining nomlana boshladi. Masalan, Chirchiq shahrida 60-yillardan boshlab "ximiklar", "energetiklar" massivlariga bo'lingan o'ziga xos shahar muhiti paydo bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, mazkur aholi manzilgohlarida energetiklar yoki kimyogarlarning istiqomat qilishgan. Aholi uchun zarur bo'lgan muassasalar (hammom, kutubxona, klublar) albatta, shahardagi yetakchi sanoat korxonasi qoshida tashkil etilgan. Bu yerda yashayotgan aholi ma'naviy hordiq olishdami, maishiy xizmatdan foydalanishdami albatta, "ximik" yoki "energetik" so'ziga duch keladi. "O'qishdan keyin", – deydi, axborotchilardan biri, "albatta do'stlarimiz bilan gitarani olib, "Ximprom" parkiga borar edik" [14]. Ya'ni o'zini madaniyatli deb hisoblaydigan har bir kishi qaysidir sanoat korxonasi qoshida ochilgan klublarga, kinoteatrlarga, kutubxonalarga borishi yoki o'sha korxonada qoshida ochilgan xor jamoasida qatnashishi zarur edi. Natijada "ximik", "energetik" kabi so'zlar shahar kishisining kundalik hayotiga aylanib boradi. Aholi orasida, "Ximpromga kirsang (ishga kirsang – A.S.) och qolmaysan" degan iboralar bekorga paydo bo'lmadi [15].

Tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarining aksariyati aynan yuqorida aytilgan korxonalar uchun mutaxassis tayyorlashga yo'naltirilgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, yosh avlodda ham ushbu shaharda hayot kechirishida kimyogar yoki energetik kasbini egallashi zarurligi to'g'risidagi tushunchalar kuchayib boradi.

Toshkent viloyatining yana bir sanoat shahri bo'lgan Angrenda ham bu jarayonlar shaklan o'xshasa-da, mazmunan o'ziga xos xususiyatga ega edi. Angren shahrining sanoat shahriga aylanishi tarixiga nazar tashlanadigan bo'lsa, mazkur mintaqa aholisi va etnik tarkibining shakllanishi, kishilarning hududdagi ijtimoiy-madaniy moslashuvi, shuningdek, odamlarda hududga xos bo'lgan o'ziga xoslikning paydo bo'lishiga doir ko'plab ma'lumotlarni uchratadi.

Bugungi kunda Angren shahar aglomeratsiyasi shakllanayotgan mintaqada darajasidagi maskan [16:48-49] hisoblanib, 2014-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 175 dan ortiq aholi istiqomat qilishi qayd etilgan [17]. Shahar geografik jihatdan Qurama va Chotqol tog'lari oralig'idagi

vodiyda joylashgan. Tabiiy qazilma resurslarga boyligi konchilikning juda erta boshlanishiga sabab bo'lgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida buni tasdiqlovchi juda ko'plab ma'lumotlar to'plangan [18;19;20].

1933-yilda geolog D.Bogdanovich Angren tog'larining ulkan ko'mir zaxirasiga boy ekanligini ilk bor qayd etgan bo'lsa-da, asosiy qidiruv-razvedka ishlari 1940-yildan, G.Chikrizov tomonidan amalga oshirila boshlandi. Tez orada uning boshchiligidagi ishchi guruh Angren daryosining o'ng qirg'og'ida, Zag'insoy yaqinida burg'ulash ishlarini boshlab yubordi [21:69]. Shu orada sovet davlatining jahon urushida ishtiroki boshlanib, endilikda, ko'mir xomashyosiga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham ortdi. Natijada, Angrenni alohida ma'muriy markaz sifatida e'tirof etib, qazish ishlarini yanada jonlantirish maqsadga muvofiq deb topildi. Bungacha Angren Ohangaron tumani tarkibidagi ishchi posyolkasi maqomidagi ma'muriy birlik bo'lib, unda 1939-yilgi aholi ro'yxatida 744 nafar kishi yashaganligi qayd etilgan [22].

1946-yil 17-mayda O'zbekiston SSR Oliy Soveti "Angrenshaxtstroy" ishchi posyolkasini Toshkent viloyati Ohangaron tumani tarkibidan ajratish va unga viloyatga bo'ysunuvchi shahar maqomini berish to'g'risida" farmon chiqardi [23:71]. Ushbu hujjat asosida Angren shahrining ko'mirchilar va energetiklar shahri ekanligi huquqiy asosga ega bo'ldi. Hududdagi ko'mir xomashyosidan foydalanishni kengaytirish, energiya olishning ushbu sohasini yanada rivojlantirish bevosita malakali kadrlarga ehtiyojni paydo qildi. Sovet hukumati dastlabki yillarda Ukrainadagi Donbass konchi mutaxassislarini bu hududga jo'natish bilan mavjud ehtiyojni qoplashga harakat qildi. Lekin ko'mir qazib olish hajmining nihoyatda tez sur'atlarda o'sib borishi, konchilarga bo'lgan ehtiyojni boshqa sovet respublikalaridan jo'natilgan ishchi kadrlar bilangina to'ldirish imkoniyatini qiyinlashtirdi. Ushbu muammoni hal etish uchun mahalliy aholini soha mutaxassisi qilib tayyorlash vazifasi paydo bo'ldi. Tez orada konchilarni tayyorlovchi bir necha ta'lim muassasalari barpo etildi. Shu tariqa bu maskan konchilarni yetishtiradigan dargohga aylandi. Ushbu dargohlar nafaqat Angren, balki O'zbekistonning konchilik tizimidagi Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo kabi viloyatlarga ishchi xodimlarni yetkazib bera boshladi. Masalan, 1959-yilda tashkil etilgan Toshkent politexnika institutining Angren filialida 700 nafar [24] talaba qazib olingan foydali qazilmalarga ishlov berish, keramikalar va o'tga chidamlilikni oshiruvchi kimyoviy texnologiyalar kabi mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim oldilar. Bitiruvchi yoshlarning aksariyati kon ishi bo'yicha Angrenda qolib ishladilar. Aytish mumkinki, o'zlarining keyingi hayotlarini mazkur sanoat markazi bilan bog'ladilar.

Ta'kidlab o'tilayotgan voqealiklar, yosh shaharga aholi migratsiyasining asosiy sabablariga aylandi. Ya'ni, ko'chib kelayotgan aholining aksariyati, ongli ravishda konchilik, energetika

sohasida ishlash yoki o'qish kayfiyati bilan kelishgan. Bu esa o'ziga xos shahar muhitining shakllanishiga turtki bo'ldi.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, Angren shahri qiyofasi boshqa sovet respublikalari sanoat shaharlaridagi kabi sovet kishisining moddiy yuksalishi uning maishiy turmushining ko'tarilishi bilan bog'liqligi to'g'risidagi nazariyalar asosida qurildi. Dastlabki shahar tipidagi manzilgohlar uch yo'nalishda – Jigaristonsoy, Teshiktosh qishlog'i va Sotsialistik shahar maydonida amalga oshirildi [25]. 50-yillarning o'rtalariga kelib, asosan, bir qavatli ishchi kvartallari, alohida shaklda barpo etilgan turar-joy komplekslari shakllandi. 1956-yilda shahar komiteti va shahar sovetining “Katta Angrenning qurilishi to'g'risida”gi masala ko'rib chiqilib, unda turar-joy va madaniy-maishiy binolari muammosi hal etildi. 1966-1968-yillardagi shaharlarni qayta qurish davrida shaharning ko'rinishi yana o'zgardi. Shahar uchun zarur bo'lgan, aholini o'zaro bog'lovchi muhim obyektlar – mehmonxona, stadion, bozor, maktab va do'konlar barpo etildi [26]. 1962-yildagi O'zbekiston Kompartiyasi MQ va respublika Ministrlar Sovetining “Tabiatni saqlash va ko'klamzorlashtirish ko'ngillilar jamiyatini” tashkil etish to'g'risidagi qaroridan so'ng, shaharliklar kuchi bilan 24 gektarli Shimoliy, 25 gektar maydonga ega Sharqiy tomoshabog'lari tashkil etildi. Go'yoki shahar yashil tusga kirdi [27]. Angrenliklarning ma'naviy hordiq olishi uchun katta imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Tashkil etilayotgan yangi-yangi sanoat korxonalarini hamda xizmat ko'rsatish sohalari, albatta, shahar aholisining maishiy turmushiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. 1959-1965-yillar oralig'ida aholining maishiy xizmat ko'rsatish sohasidan foydalanish imkoniyati 4 baravar o'sdi. Shaharliklar 1970-yilda 1965-yildagidan maishiy xizmatning 25 dan ziyod turlariga ega bo'ldi [28:35-36].

Ko'rinib turibdiki, Angren shahrida amalga oshirilgan barcha sohalardagi bunyodkorlik ishlari ko'mir sanoatini rivojlantirish va konchilar turmushini yaxshilash muammosi doirasida amalga oshirildi. Ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlash ham shu sohaga yo'naltirildi. Bularning barchasi shahar aholisida o'zlarining odamlarga va dunyoga issiqlik, quvvat ulashuvchi ekanligiga oid o'ziga xos ruhiyatning shakllanishiga olib keldi. Shahar aholisining o'sishi tezlashdi. Angren sanoat markaziga aylangan davrlarda aholining ming nafarga ham yetmaganligini, 1959-yilgi aholi ro'yxatida 55 mingdan ortiq [29], 70-yillarga kelganda u yerda faqatgina konchilarning o'zi 5 ming [30:13,17] nafarni tashkil etgani, shuningdek 1979-yilda 106 ming, 1989-yilda 132 ming kishi [31:21] yashaganligi shuni ko'rsatadi.

Aholining shahar muhitiga ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi ham o'ziga xos bo'lib, ularning aksariyatida kon ishi hayot kechirishning asosiy omiliga aylandi. Bu esa ularda kon ishiga hurmat-e'tiborni kuchaytirdi. Ma'lumki, aholining xo'jalik mashg'uloti uning o'ziga xos

ruhiyatini ham shakllantiradi. Angrenliklarda ham bu ko‘zga tashlanadi. Ularning aksariyat mehnat qo‘shiqdarida o‘zlarini quvvat ulashuvchi xislat bilan sifatlaganini ko‘rish mumkin. Masalan:

По-ангрени от щедрого сердца

Дарим людям и свет, и тепло [32]

Angren shahri aholining o‘zlikni anglashdagi bu kabi xususiyatlar sanoat markazining ko‘mir qazib olishga ixtisoslashganligidan tashqari, ma‘naviy hayotining ham shu izdan rivojlantirilishi natijasi edi. Aholining madaniy-maishiy hayotida muhim rol o‘ynovchi muassasalarning tashkil etilishida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Madaniyat uylari, klublar, kutubxonalar va boshqalar angrenliklarning emas, balki, aynan, konchilarning ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgandek go‘yo. Shaharda “Gornyak”, “Shaxtyor”, “Energetik” kabi klublar faoliyat ko‘rsatgan. Qolaversa, Sovet Ittifoqi respublikalarining ko‘zga ko‘ringan yozuvchilari va madaniyat arboblari ma‘lum vaqt shaharda yashab, shahar aholisini fidokorona mehnatga undovchi shiorlari bilan murojaat qilishgan. Jumladan, turkman yozuvchisi Berdi Qorboboyev: “Bizga sizning ko‘miringizsiz sovuq, sizga bizning san‘atimizsiz zerikarli” degan edi [33:26].

Angren shahriga asosan konchilik rivojlangan sovet Ukrainasidan mutaxassislarining kelishi, ishlab chiqarish, kadrlar tayyorlash tizimining asosan konchilikka ixtisoslashgani o‘ziga xos manzarani vujudga keltirdi. Ya‘ni angrenliklar deyilganda konchilar tushuniladigan, shaharda esa konchilar shahriga xos ijtimoiy qiyofa shakllandi. Ijtimoiy-iqtisodiy moslashuv natijasida kishilarda shaharga xos bo‘lgan umumiy madaniyat belgilari yuzaga keldi. Bir so‘z bilan aytganda ishchilar posyolkasi bo‘lgan Angren, endilikda konchilar shahriga aylandi.

Xulosa o‘rnida shularni aytish mumkinki, sanoat shaharlaridagi o‘ziga xos muhitning shakllanishida mafkuraning roli katta bo‘ldi. Shaharlarda rivojlangan hayot tarzining tashkil etilishi, sotsialistik taraqqiyotning belgisi ham edi. Har bir shaharda o‘ziga xos sotsialistik muhit yaratildi. Chirchiqni “kimyogarlar shahri”, Angrenni esa “ko‘mirchilar shahri”, Olmaliqni “konchilar shahri”, Bekobodni “metallurglar shahri” deb nomlanishida yuqoridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta‘siri kuchli edi. Aholida har bir shaharga xos bo‘lgan umumiy madaniyat paydo bo‘ldi. Endilikda, qaysidir etnosga xos bo‘lgan madaniyat yoki urf-odatlar, go‘yoki, eskilik qoldiqlari sifatida namoyon etildi. Shahardagi ijtimoiy-madaniy hayot ma‘lum etnos emas, balki, qaysidir ijtimoiy birlik nuqtayi nazaridan tashkil etildi. Angrenda ko‘mirchilar, Bekabodda metallurglar yuksak turmush tarziga ega bo‘lishlari kerak edi. Bularning barchasi sanoat shaharlari aholisining ijtimoiy-madaniy o‘zligini anglashiga ta‘sir etmasdan qolmadi. Ko‘plab millat vakillari faoliyat yuritayotgan yirik sanoat korxonalarini o‘sha

shahar aholisi uchun do'stlik, birodarlik namunasi ham edi. Demak, sovet mafkurasini sanoat shaharlari aholisi orasida o'ziga xos ijtimoiy-madaniy identiklikning paydo bo'lishida globallashtiruvchi omil deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. – London: Sage Publications, 1992.
2. Шульгина Д.Н. Глобализация и культурная идентичность. Авт. реф. дисс. кан. филос. наук. – Воронеж, 2010. –С.3.
3. Мазуренко И.В. Национально-культурная идентичность в условиях глобализации: социально-философский анализ. Дисс. кан. фил. наук. – Москва, 2009.
4. Алевердян А.Л. Этнокультурный менталитет и идентичность в условиях модернизации современной России. Дисс. кан. фил. наук. – Москва, 2009
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Национальный_состав_России 2019.
6. Шакурова Г.Р. Этническая идентичность современных башкир. Дисс. кан. пол. наук. – Москва, 2005. –С.66.
7. Национальное самосознание и национализм в Российской Федерации начала 90-х годов /отв. ред. проф. Дробижева Л.М. М.: ИЭА РАН, 1994. С.31.
8. Ruth W., Rudolf de C., Martin R., Karin L. The discursive construction of national identity. Second edition. – Frankfurt-Main: Edinburg University Press, 2009. –P.2.
9. Orlova N.G. The identity of industrial cities in Russia and the CIS in the era of globalization: analysis and methods of preservation // News of Kazan State University of Architecture and Engineering (Известия КГАСУ). – 2024. – № 3(69). – P. 216–228.
10. Давыдов Д.А. Моногородская идентичность и проблемы «промышленной ментальности» (на примере г. Магнитогорска) // Вестник Пермского федерального исследовательского центра. Серия «Социология». – 2014. – № 5. – С. 73–79.
11. <https://ktonanovenkogo.ru/voprosy-i-otvety/globalizaciya-chto-eh-to-takoe-prostymi-slovami-plyusy-minusy-primer.html>
12. Анаркулов С. Ангренинг кончилар шахрига айланиши тарихидан. / Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари. – Тошкент, 2019. 40-42-бетлар.
13. Якубов Ф., Салимов Т. Чирчик. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – С.12.
14. “Правда Востока”, 10 июнь 1961 г.
15. История новых городов Узбекистана Ташкентская область. – С.69.
16. Дала таджикотлари. Чирчиқ ш., 2019 йил июль.

17. Дала таджикотлари. Чирчиқ ш., 2019 йил июль.
18. Таштаева С.К. Ўзбекистон шаҳар агломерацияларининг шаклланиши ва ривожланиши (Тошкент агломерацияси мисолида). География фан. ном. дисс. Тошкент, 2011. 46-48- бетлар.
19. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
20. Массон В.М. Ахангаран. Археол. топог. очерк. –Ташкент: АН УзССР, 1953.
21. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. –Ташкент: Фан, 1982. – 214 с.
22. Филанович М.И. Ташкент Зарождение и развитие города и городской культуры. –Ташкент: Фан, 1983. – 233 с.
23. История новых городов Узбекистана Ташкентская область. –Ташкент: Фан, 1976. –С.69.
24. ЎзРМДА. 1619-фонд, 11-йиғма жилди, 701-иш, 2-жадвал.
25. Города Узбекистана. –Ташкент: Узбекистан, 1965. –С.71.
26. Ангрен шаҳар архиви, 7-фонд, 262-иш, 12-вароқ.
27. Тошкент вилояти давлат архиви, 408-фонд, 3-жилд, 23-иш, 34-вароқ.
28. Ангрен шаҳар архиви, 7-фонд, 262-иш, 22-вароқ.
29. “Ангрен ҳақиқати” газетаси, 9 июнь 1966 йил.
30. Гулямов А. Ангрен. –Ташкент: Узбекистан, 1971. –с.35-36.
31. Всесоюзная перепись населения 1959 г.
32. Гулямов А. Ангрен. – Ташкент: Узбекистан, 1971. –С.13, 17.
33. Болдыров В.А. Итоги переписи населения СССР. –Москва: Финансы и статистика, 1989. –С.21.
34. Гулямов А. Ангрен. – Ташкент: Узбекистан, 1971. –С.26.